

ENG QADIMGI TEONIMLARNING LEKSIK-ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Ernazarova D.O.

Farg'ona davlat universiteti

Annotatsiya. Mazkur maqolada eng qadimgi teonimlarning leksik-etimologik xususiyatlari ochib berilgan. Onomastika haqidagi qarashlar bayon etilgan. Teolingvistika yangi yo'nalish sifatida talqin etilgan.

Kalit so'zlar: teolingvistika, lingvistika, onomastika, teonimlar, diniy matnlar, tangri.

Annotation. This article reveals the lexical and etymological features of the oldest theonyms. Views on onomastics are stated. Teolinguistics is interpreted as a new direction.

Keywords: theolinguistics, linguistics, onomastics, theonyms, religious texts, god.

Аннотация. В статье раскрываются лексико-этимологические особенности древнейших теонимов. Изложены взгляды на ономастику. Теолингвистика трактуется как новое направление.

Ключевые слова: теолингвистика, языкознание, ономастика, теонимы, религиозные тексты, бог.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikning yangi yo'nalishlaridan biri teolingvistika hisoblanadi. O'zbek tilshunosligida teonimlar etimologiyasi chuqur va mukammal o'rganilmagan, o'z tadqiqini kutayotgan masalalardan biri sanaladi. O'zbek teonimlarini to'plash, guruhlash va lisoniy xususiyatlarini o'rganish nomshunoslikning dolzarb muammolaridan biri bo'lib qolmoqda.

O'zbek onomastikasi keng ko'lamli va ko'p qirralidir. Teonimlar onomastikaning tarmoqlaridan biri bo'lib, diniy tushunchalar nomlari hisoblanadi. «Teonimlar diniy muloqotni o'rganuvchi tilshunoslikning yangi yo'nalishi – teolingvistikaning shakllanishiga turtki bo'ldi. Teolingvistika termini inglizcha theo – din, xudo va linguistics – tilshunoslik so'zlaridan olingan. Demak, Teolingvistika – diniy tilni o'rganuvchi fan»¹ Teolingvistika inson diniy faoliyati va uning lisoniy ifodasini tadqiq qiluvchi fan hisoblanadi. Teolingvistikaning tadqiqot ob'ekti diniy tafakkurning tildagi ifodasi sanaladi. Dunyo tilshunosligida bunday yo'nalish teolingvistika nomi bilan yuritila boshlandi. Ayni paytda bunday tadqiqotlarning dastlabki namunalari jahon tilshunosligida Devid Kristal, Jan Per, Van Noppen va Uilyam Samarin kabi taniqli olimlarning amaliy va ilmiy izlanishlarida ko'zga tashlanadi. Van Noppen «teolingvistika» atamasini fanga olib kirgan. Ilk bor «Teolingvistika» nomli maqolalar to'plamini jamlashga muvaffaq bo'lgan olimdir. XXI asrga kelib jahon tilshunosligida til va din masalalariga bag'ishlangan ensiklopediya ham vujudga keldi. J.Soyer va J.Simpson tomonidan yaratilgan «Til va dinning qisqacha ensiklopediyasi»da dunyoning turli

¹<https://www.definitions.net/definition/theolinguistics>; www.yourdictionary.com; en.wiktionary.com (date of access: 12.01.2019).

burchaklarida yashovchi xalqlarga oid diniy tushunchalar va til bilan bog'liq xususiyatlar yoritilgan. Bu esa teolingvistika va uning muammolariga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi.² Sharqda din va til masalalarini o'rganish ancha oldin boshlangan. Arab tilshunosligida Qur'oni karimni lingvistik tadqiq qilish asnosida vujudga kelgan. O'zbek tilshunosligida diniy lingvistika bo'yicha E.Begmatov, N.Uluqov, T.Yuldashev, M.Umarxo'jaev, M.Galieva, Sh.Sultonova, Sh.Yusupova kabi tilshunoslar ilmiy izlanishlar olib borganlar. Shunday ekan, teolingvistika o'zbek tilshunosligida ham rivojlanib borayotgan tilshunoslik tarmoqlaridan biridir. M.Umarxo'jaev o'zbek tilida «Diniy atamalar va iboralar» izohli lug'atini yaratgan olim sifatida mashhurdir.

O'zbekcha diniy matnlarda teonimlar tarjima tilida muqobili bo'lmaganligi uchun asl holicha qo'llanadi. Matnga xos diniy ruhni ta'minlash uchun xizmat qiladi. Shu nuqtai nazardan N.Uluqov teonimlarni ekzotik leksika sirasiga kiritadi.³

Qozon tilshunos olimi M.X.Bakirovning ma'lumot berishicha, dunyo tilshunosligida Borean nazariyasi mavjud⁴. Unga ko'ra hind-evropa, afroosiyo, kartvel, ural va oltoy tillar oilalari genetik jihatdan bog'liq. Umumiy bobo tilning emirilishi natijasida til oilalari bir qancha turdosh dialekt guruhlarga bo'linib ketadi. Taniqli tilshunos olim N.S.Trubetskiyning xulosasiga ko'ra, dastlab, hind-evropa tillar oilasi tashkil topadi. Keyinchalik, Ural-Oltoy va O'rta Er dengizi bilan aloqa-aralashuv natijasida kavkaz tillar oilasi ajralib chiqadi⁵. So'ng oltoy tillar oilasi vujudga keladi. Tilshunoslik tarixida o'zbek tili, dastlab, oltoy tillar oilasi tarkibida bo'lgan. Keyinchalik turkiy tillar oilasi alohida ajralib chiqadi. Turkiy tillarning tuzilishi va ildiz tizimi nihoyatda chidamli hisoblanadi. Lug'at tizimi ham boshqa tillarga nisbatan kam o'zgarishga uchragan. Masalan, O'rxun-Enasoy obidalari tili, VIII asr adabiy tili namunasidir. Asar tilidagi ko'plab so'zlar hozirgi o'zbek leksikasida keng qo'llanilib kelmoqda. Ba'zi so'zlarda tovush o'zgarishlari yuzaga kelgan. Yana bir toifa so'zlar esa iste'moldan chiqib ketgan. «Tangri ancha tamis arinch: qan bartim» («(Ko'k) Tangri shunday degan shekilli: xon berdim»)⁶.

Qadimgi mifologik teonimlar umummilliyligi va parallelligi bilan turli tildagi xalqlarni birlashtiradi. Biz maqolamizda eng ko'p qo'llaniladigan teonimlardan biri Tangri teonimiga to'xtalib o'tamiz.

Tangri so'zi milloddan 2500 yil avval paydo bo'lgan. Etimologik lug'atlarda turlicha talqin qilinadi. Masalan, qozoq turkologi K.M.Musaev teng+ir qadimiy "ko'tarilmoq" o'nlik fe'liga -ir qo'shimchasini qo'shish bilan yasalgan deb izohlaydi. Yoqut olimi N.K.Antonova esa tang+ir – "tong odami" ma'nosida qo'llanganini aytadi.⁷ Lekin o'zbek tilining etimologik lug'atida bu so'zning

² Юсупова Ш., Диний матнларнинг лингвопрагматик тадқиқи. Филол.фан.фалсафа доктори....дисс.автореф. – Фарғона, 2021. –12 б.

³ Улуқов Н., Ўзбекча диний матнларда теонимлар ва уларнинг тадқиқи ҳамда талқини. -Наманган, 2020. -2 б.

⁴ Бакиров М., Феномен параллелизма древнейших мифологических теонимов. -Казан, 2011. -1

⁵ Трубецкой Н.С. Мысли об индоевропейской проблеме // Вопросы языкознания. – 1958. – №1. – С.65–77.

⁶ Исҳоқов М., Содиков Қ., Омонов Қ., Мангу битиглар. -Тошкент, 2009. -30-б.

⁷ Бакиров М., Феномен параллелизма древнейших мифологических теонимов. -Казан, 2011. -5

etimologiyasi berilmagan. Tangri teonimi islom dini paydo bo'lgandan so'ng Alloh teonimi bilan sinonimga aylandi. Hozirda ham muloqot jarayonlarida Tangri teonimi faol qo'llaniladi.

Dunyo tilshunosligida Tangri teonimi quyidagicha ishlatilgan:

1.	Turkiy xalqlar tillarida	Tengre/Tengeri/Tenri/Tanri	Osmon xudosi
2.	Mo'g'ul, tungus-manjur tillarida	Tengri/Tengere/Tanara	Oliy xudo
3.	Urat, Ossuriya, Poloneziya	Tangora	Oliy xudo
4.	Xitoy	Tyan/Tien	Oliy xudo
5.	Elamliklar (O'rta er dengizi)	Tingir	Oliy xudo
6.	Qadimgi nemis tili	Tonor	Momaqaldiroq xudosi
7.	Fransuz	Tonner	Momaqaldiroq xudosi
8.	Shumerlar	Dinger	Oliy xudo
9.	Gotika va Nemis tillarida	Donar	Oliy xudo
10.	Qadimgi germaniya	Tor	Momaqaldiroq xudosi
11.	Qadimgi islandiya	Tir	Osmon xudosi
12.	Xanto-Mansi	Torin	Samoviy xudo
13.	Estoniya	Taara	Oliy xudo
14.	Finlandiya	Toora	Oliy xudo
15.	Dravid	Tiru/chiru	Oliy xudo
16.	Chuvash	Tur	Oliy xudo
17.	Qorachoy	Teyri	Oliy xudo
18.	Tatar	Tere	Oliy xudo
19.	Oltoy tillar oilasi	Tengri/Tenger/Tanara	Oliy xudo
20.	Qadimgi Skandinaviya	Tonar	Momaqaldiroq xudosi

Dunyo mifologiyasida xudolarning nomlari Tengri/Tengere/Tangara so'zlarining **re/ri/ra** qismlari bilan bog'lanadi:

1	Oro	Quyosh xudosi	Poloneziya
2	Ra	Quyosh xudosi	Misr
3	Re-Re	Quyosh, tong xudosi	Borey
4	Nara	Quyosh, kun xudosi	Oltoy
5.	Ara	Bahor xudosi	Arman
6	Ravi+sura	Quyosh xudosi	Sanskrit
7	Mitra	Quyosh xudosi	Turkiy xalqlar
8	Ahuramazda	YAxshilik xudosi	Turkiy xalqlar
9	Axriman	YOmonlik xudosi	Turkiy xalqlar
10	Indra	Quyosh xudosi (Xudo –osmon, quyosh uningko'zi)	Eron
11	Aurora	SHafaq (tong) ma'budasi	YUnon

Keyinchalik xudolarning nomi bilan bog‘liq yangi ma‘noli so‘zlar paydo bo‘ldi.

1	Re	Qirol	Italiya
2	Raja	Qirol	Hindiston
3	Revin	Quyosh o‘g‘li	Semit
4	Ray	SHafaq ,porlash	Lotin
5	Yure	Tong,ertalab	CHechen
6	Reshe	Quyosh tumanligi	Tatar

Tangri so‘zi deyarli barcha tillarda *osmon,samo, momaqaldiraq,chaqmoq, gumburlash,quyosh,tong* ma‘nolarini ifodalab keladi. Bu so‘zdan hosil bo‘lgan yangi so‘zlar ham bir-biriga yaqin lug‘aviy ma‘no ifodalaydi.

Yuqoridagi tahlillardan ko‘rinib turibdiki, har bir so‘zning o‘ziga xos kelib chiqish tarixi va taraqqiyoti mavjud. Eng qadimgi teonimlarning etimologik xususiyatlarini tadqiq qilish – zamonaviy tilshunoslikning asosiy vazifalaridan biridir. Insoniyat olamini bog‘lab turuvchi vositalardan biri bu-e’tiqod masalasi hisoblanadi. Shunday ekan, diniy tafakkurning lisoniy ifodasi masalalari har doim dolzarb bo‘lib qolaveradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. <https://www.definitions.net/definition/theolinguistics; www.yourdictionary.com; en.wiktionary.com> (date of access: 12.01.2019).
2. Yusupova Sh., Diniy matnlarning lingvopragmatik tadqiqi. Filol.fan.falsafa doktori....diss.avtoref. –Farg‘ona, 2021. –12 b.
3. Uluqov N.,O‘zbekcha diniy matnlarda teonimlar va ularning tadqiqi hamda talqini.-Namangan,2020.-2 b.¹
4. Bakirov M., Fenomen parallelizma drevneyshix mifologicheskix teonimov.-Kazan,2011.-1
5. Trubetskoy N.S. Мысли об индоевропейской проблеме // Вопросы языкознания. – 1958. –№1. – S.65–77.
6. Ishoqov M.,Sodiqov Q.,Omonov Q.,Mangu bitiglar.-Toshkent,2009.-30-b.